

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

“Musiq va mehnat ta'limi” kafedrası

**5110800-“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo'nalishi
31-11 guruh talabasi Xonimqulov Kenjaboyning
“Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik
bilimlarini shakllantirish”
mavzusida bajargan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar:

“Musiq va mehnat ta'limi” kafedrası o'qituvchisi H.Toshboyev

Guliston – 2016 y

Bitiruv malakaviy ish Guliston davlat universitetining 2015 yil 15 apreldagi 137-S-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat attestatsiya komissiyasining ____-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va "____" ball bilan (____) baholandi.

(a'lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ish "Pedagogika fakulteti" ning 2015 yil "____" ____dagi ____-sonli Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun taqdim etildi.

Fakultet dekani

J.Komilov

Bitiruv malakaviy ish "Musiq va mehnat ta'limi" kafedrasining 2015 yil "____" ____dagi ____-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri

N.Raximov

BMI bajaruvchi "5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 31-11 guruh talabasi _____K.Xonimqulov

Rahbar "Musiq va mehnat ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi _____ H.Toshboyev

Guliston – 2016 y.

Mundarija:

Kirish.....	3-7
 I-Bob. Rangtasvir fanining o'qitishning nazariy asoslari.	
1.1.Rang san'ati hamda rangtasvir tarixiga bir nazar	8-14
1.2. Rang simvolikasi va rang va san'atdagi sintez haqida tushuuncha.....	15-22
 II-Bob. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari.	
2.1. Rangtasvirda kompozitsiya qonunlari va vositalari.....	23-37
2.2. Tajriba sinov ishlari va uni o'tkazish metodikasi.....	38-42
 Xulosa va ilmiy metodik tavsiyalar.....	43-44
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	45-46
 Ilovalar.....	47-51

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan keyin jamiyatimizda katta xayrli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi tashkil etilgan akademik lisey, kollej, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Inson ijodiy faolligi uning xar tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson xayotiy jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar dunyosi borliqqa go'zallik nafosat qonuni orqali qarashga undaydi.

Tasviriy san'atning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. "Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, — u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi,— deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi.— Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bogliq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi". Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy aytib o'tganidek: "San'atni o'rganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar".

Tasviriy san'atning tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda yorug'-soya,

ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bergan, deb bo'lmaydi.

Ta'lim olish jarayonida talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari — rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarning fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir.

Tasviriy san'atni o'rganish, uning texnik asoslarini o'rganishdan boshlanadi.

Xuddi shu bilimlar tasviriy san'atning turli ko'rinishlari bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishga sharoit yaratadi.

Universitetlarning badiiy grafika fakultetlari va san'at litseylarida materialshunoslik va tasviriy san'at vositalariga kam e'tibor qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonida juda katta uzilishlarga olib keladi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada tasviriy san'at vositalari, asbob-uskunolari va materiallari bilan tanishtirishni va rangtasvir texnikasi va texnologiyasining ijodiy imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilib qo'yilgan.

Materiallarning xususiyatlari bilan tanishish ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar tasviriy san'atning texnik asoslarini o'rganib bo'lishganidan so'nggina rassom-pedagog ularni qalamtasvir va rangtasvirga o'rgatadi.

Rangtasvir materiallarini yaratish texnologiyasi amaliy kimyo asosida rivojlandi va ilmiy xarakterga ega. Bu texnologiyani rangtasvirchilar amaliy ish jarayonida yaratishgan va yillar davomida o'rganishgan.

Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha yangi tasviriy vositalarning rivojlanishi rangtasvir qoidalarini san'at, shuningdek hunarmandchilik sifatida k o'rsatib kelgan.

Bo`yoqni birinchi bo`lib ibtidoiy jamoa davrida yashagan inson kashf qilgan. Hayvonlar qoni, moy, ko`mir, tuproq ham o`sha davrlarda ishlangan bo`yoqlarning tarkibiy qismi bo`lgan. Bo`yoqlarni tayyorlash malakalari hozirgi kungacha ham o`zgarishsiz yetib kelgan, lekin asosiy tarkibiy qismlari va ishlab-chiqarish texnikasi o`zgarib ketgan.

Bo`yoqlar pigment va bog`lovchi vositalardan tarkib topadi. Pigment (lat. Pigmentum)- bu bo`yovchi modda hisoblanadi. Keyingi boblarda bu to`g`rida batafsil to`xtalib o`tamiz.

Italyan rassomi, me'mori va yozuvchisi Jorjo Vazari 1550-1568 yillarda birinchi «San'at tarixi» kitobini yozadi va bu kitobida moybo`yoqni kashf etgan aka-uka Yan van-Eyklar haqida ma'lumot beradi. Moybo`yoq rangtasvirda XV asrdan buyon qullanila boshlandi. Shungacha kartinalar, ayniqsa yog`ochga ishlangan rasmlar tuxumli tempera bilan ishlangan. Bu kartinalarni yaratishda rantasvir uchun murakkab materiallar va bog`lovchi elementlardan foydalanganlar. Lekin, ular qisqa vaqtda ishdan chiqqan va bo`yoqni yana tayyorlash zarur bo`lgan. Bo`yoqlarda bog`lovchi vosita sifatida moylardan foydalanila boshlagandan keyin, bo`yoq tayyorlash jarayoni bir muncha osonlashadi. Bundan tashqari bo`yoqlarning yorqinligi va ranglarning aniqligi oshdi. Turli bo`yoq qatlamlarini bir-biriga qo`yilishi nozik rang nyuanslarini keltirib chiqardi.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalar hamda muammoning dolzarbligi, nazariy-pedagogik va amaliy holatidan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini ***“Tasviriy san’at mashg’ulotlarida o’quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish”*** deb tanlab oldik.

Tadqiqot ishimizning **maqsadi**- Tasviriy san’at mashg’ulotlarida o’quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning samarali yo’llarini va metodlarini ishlab chiqish xisoblanadi.

Tadqiqot ishimizning **ob’ekti** – umumiy o’rta ta’lim maktablarining tasviriy san’at darslari deb belgilangan.

Tadqiqot ishimizning **predmeti** - Tasviriy san’at mashg’ulotlarida o’quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning samarali yo’llari.

Tadqiqod ishimizning **ilmiy farazi** - Agar:

- Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning samarali yo'llarini ta'minlovchi omillardan maqsadga muvofik foydalanilsa;
- Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning uzviyligi ta'minlasa;
- Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning an'anaviy metodlar bilan bir qatorda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilsa;
- tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarga muvofik ravishda topshiriqlar berilsa tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalariga to'liq erishgan bo'lar edik .

Tadqiqot ishimizning **vazifalari**.

1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishni samarali yo'llarining mohiyati va o'rnini aniqlash.
2. Tadqiqot muammosini nazariya va amaliyotdagi ahvolini tahlil etish.
3. Darslarda o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan ta'lim mazmuni, hamda shakli, usullarini ishlab chiqish, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
4. O'zbekistonda tasviriy san'atdan o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish bo'yicha pedagog olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganish;
5. O'quvchilarga badiiy bezash ishlarida yozuv harfi va uning turlarini o'rgatish metodikasini yangicha talqinda ishlab chiqish;

Ilmiy ishimizning **metodologik asoslari** – «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining xujjatlari. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligining qaror va ko'rsatmalari, buyuk pedagog-rassomlar, pedagog-olimlar, amaliy san'ati haqidagi mutaxassislarning qarashlari va natijalari xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizning **metodlari**: tadqiqot mavzusiga oid pedagogik, metodik adabiyotlar va ta'lim mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlarni

o'rganish, tahlil etish; pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, savol-javob, test, o'quvchilarar rasmlari tahlili, ilg'or pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistika xisoblanadi.

Tadqiqot ishimizning **ilmiy yangiligi** – Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning bilimi, dunyoqarash saviyasi oshishi pedagogik muammo sifatida asoslanganligi; avangard san'ati bo'yicha bilim va malakalarining o'sishda o'ziga xos xususiyatlari aniqlanganligi; badiiy bezash san'tini o'qitishga doir maqbul metodlar majmuining ishlab chiqilganligi, hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot ishimning **amaliy ahamiyati**. Tadqiqotimizda yoritilgan nazariy va amaliy natijalardan kasb-hunar kollejlari va san'at litseylarida tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida samarali foydalanish mumkin. Ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar o'quvchilar bilim va malakalarini shakllantirish jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizning **bazasi** bo'lib, Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 16-o'rta maktabining 7- sinflari xizmat qildi. Tajriba-sinov ishlarimizda 2 ta tasviriy san'at o'qituvchilari va 47 ta 7-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to'rt fasldan, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, muammoning asoslanganligi, mavzuning ishlanganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, uning ilmiy va amaliy ahamiyati kabilar bayon etilgan.

Ishning birinchi bobida **Rangtasvir o'qitishning nazariy asoslari** bayon etilgan. Ishning ikkinchi bobida **Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari** o'z ifodasini topgan.

Umumiy xulosalarda tadqiqot yuzasidan olib borilgan ishlarning natijalari bayon etilgan.

I-Bob. Rangtasvir fanining o'qitishning nazariy asoslari.

1.1.Rang san'ati hamda rangtasvir tarixiga bir nazar.

Rangtasvir - rang san'ati. Rangtasvir - xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriyl san'at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq , tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomashabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlari bilan, rangtasvirdagi eng asosiy ta'sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi.

Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriyl satxda uzluksiz bo'yoq qatlamini hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoqi akvarel rangtasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzluksizligiga ta'sir qilmaydi, chunki bo'yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangning tasviriyl va ta'sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo'lgan erkinlik va to'liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko'rsatish, muhim detallarini bo'rttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassiligini berish mumkin.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko'riladi.

Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o'zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Bo'larning hammasi rangtasvir janrlari orqali beriladi.

Dunyodagi ob'ektlar, voqea va hodisalarning turli tumanligi va rassomlardagi ularga bo'lgan qiziqishning kuchayib ketishi XVII asrga kelib rangtasvirda turli tuman janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bo'lar portret, manzara, natyurmort, animalistik, afsonaviyl, tarixiy, batal va maishiy janrlar edi. Rangtasvir asarida

janrlar yoki ularning elementlari aralashib kelishi mumkin. Masalan, natyurmort va manzara portretini muvaffaqiyatli to'ldirishi mumkin.

Rangtasvir dastgoxli va monumental rangtasvirga bo'linadi.

Rassom kartinasini podramnikki tortilgan xolstda ishlaydi. Bu xolst dastgoxga urnatilgan bo'ladi. Shu sabab ham bu dastgoxli rangtasvir deb ataladi.

"Monumental" so'zi juda katta degan mazmunni beradi. Monumental rangtasvir esa binolarning ichki yoki tashqarigi devoriga chizilgan katta kartina (freska, panno va boshqalar) hisoblanadi. Monumental rangtasvir asarini uning asosida (devorlar, tayanch, ship va x.zo) ajratish mumkin emas. Monumental kartinalar uchun mavzular katta ahamiyat berib tanlanadi. Buning uchun tarixiy voqealar, qahramonona jasoratlar, halq ertaklari va xoqazolar tanlanadi. Monumental rangtasvir bilan panno, mozaika va vitrajlar ham bevosita bog'lanib keladi. Bu san'at turlari dekorativ rangtasvir va dekorativ san'at hisoblanadi. Bu yerda monumental rangtasvir va arxitekturaning stil va obrazli birligi muhim ahamiyatga ega.

Rangtasvirning miniatyura, ikonaga rasm solish, dekorativ naqsh, teatr - dekoratsiyasi kabi turlari ham mavjud. Rangtasvirning harbir turlari o'zining bajarish texnikasi va badiiy - obrazli vazifalarni hal qilishi spetsifikatsiyasiga qarab ajratiladi.

Rangtasvir tarixida ikonaga rasm solish san'ati katta rol uynagan. Bu san'at IV asrda Vizantiyada tugilib, bo'tun pravoslav dunyosiga tarkaladi. Ikonalar dunyoga xizmat qilib, unda faqat mukaddas diniy bitiklardagi obrazlar tasvirlangan.

Maqbaralarda ikonalar me'morchilik, dekorativ - amaliy san'at bilan bir yaxlit kompozitsiyani tashkil etadi. Ikonadagi rasmlar diniy marosimlarda miltillab yonib turuvchi lampa va shamlar, shuningdek diniy aytimlar ta'sirida juda katta emotsional - obrazli ta'sir ko'rsatadi.

Ikonalar iloxiy go'zallikni bera oluvchi rangtasvir asari hisoblanadi. Ikonalarning rangi shartli va dekorativ bo'lib, u real hayotni emas, balki iloxiy fikrni beradi. Shuningdek u halqning estetik ideallarini aks ettiradi. Qadimgi Rus ikonolari dunyo san'atiga juda katta badiiy kiymatga ega bo'lgan san'at asarlari

hisoblanadi. F.Grek, A.Rublev, Dionisiy kabi rassomlar ikonaga rasm solish san'atining eng ko'zga ko'ringan namoyondalaridan hisoblangan.

Miniatyura san'ati bu o'zining shartliligi, dekorativligi, shakl, faktura va bezaklarining o'ziga xos usulda berilishi bilan ajralib turuvchi kichik o'lchamdagi tasviriy san'at asari hisoblanadi.

O'rta asrlarda qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar miniatyura san'atining paydo bo'lishiga olib keldi.

O'rta asrlarda kitob miniatyura san'ati Yaqin Sharq, Markaziy va O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Vizantiya, Qadimgi Rus va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida gullab yashnadi. Shu davrlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Maxmud Muzaxxib, Murod Samarkandiy va boshqa qator musavvirlar Sharq miniatyura san'atining nodir na'munalarini yaratib qoldirdilar. Bo'lar orasida Ayniqsa Kamoliddin Behzod ning faoliyati (taxminan 1466-1535 yillar) diqqatga sazovordir. Kamoliddin Behzod Xirotda tugilgan. Bu yerda Husayn Boyqaro ko'tubxonasida ishlagan. 1507 yil Xuroson Shayboniyxon qo'liga o'tgach, Behzod Buxoraga ko'chib kelgan va shu yerda 1522 yilgacha yashab, ijod qilgan va o'zining mashhur Shayboniyxon portretini yaratgan. Keyinchalik qisqa vaqt Tabrizda (1522-1524) keyin yana Xirotda yashab ijod etgan.

Buyuk Alisher Navoiy g'amho'rlikida kamol topgan Behzod Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston", Nizomiyning "Hamsa", Hisrav Dehlaviyning "Xamsa", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlariga ko'plab suratlar chizgan.

A. Navoiyning dostonlarini ajoyib suratlar bilan bezagan. Behzod ning ijodiy rejalarini keyinchalik uning shogirdlari Qosim Ali, Maxmud Muzaxxib, Mulla Yusuf va boshqalar davom ettirdilar. O'rta asrlar kitob miniatyurasi hozirgacha bizni o'zining go'zalligi, bo'yoqlarining yorqinligi va tozaligi, bezaklarining murakkabligi, obrazlarining qiziqarliligi bilan lol qoldirib keladi.

Rangtasvirning yana bir turi dekorativ naqqoshlik hisoblanadi.

Kartina va monumental rangtasvirdan farqli bo'lgan mustaqil fikriy - obrazga ega bo'lmagan, dekorativ xarakterga ega bo'lgan syujetli rangtasir kompozitsiyalari dekorativ rangtasvir deyiladi. Dekorativ rangtasvir me'moriy

inshoot va dekorativ - amaliy san'at buyumlaridagi bezaklarning turli ko'rinishlarini birlashtiradi.

Me'moriy dekorativ bezak devorga, gumbaz, fasad va binoning boshqa elementlariga yoki xolstga bajarilishi mumkin.

Teatr dekoratsiyasi ham rangtasvirning turlaridan biri hisoblanadi. Uning vazifasi spektaklning obrazini yaratishdan iboratdir. Spektaklni badiiy bezash stsenografiya deb ham yuritiladi.

Teatr uchun turli - tuman dekoratsiyalarni yaratishda rangtasvir juda katta rol uynaydi. U saxnadagi san'at asarini bo'lib o'tayotgan joyi, vaqti, davri, stili va janrini aniq bera oladi. Teatr - dekoratsiyasi rangtasviri faqat asar xarakteriga emas, balki spektaklning rejissurasiga va rassomning individual ijodiy yondoshuviga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham turli teatrlarda kuyilayotgan bitta spektakl turlicha bezatilishi va turlicha ahamiyatga ega bo'ladi.

Hozirgi davrga kelib teatr-dekoratsiyasi san'tida ham turli tuman tendentsiya va oqimlar paydo bo'lgan.

Ba'zi rassomlar dekorativ rangtasvirning realistik an'analarini davom ettirsalar, boshqalari shakl, rang. Yorug'lik va fazoni qo'llagan holda turli-tuman izlanishlar olib boryaptilar.

Ba'zilar turli fakturali noan'anaviy materiallardan (plastik, metall, arkon, suyak va xoqazo) foydalanadilar.

Hozirgi davrda esa lazer effektlari, lyuminestsent bo'yoqlari, videoapparat, kompyuter grafikasidan ham foydalanayaptilar.

Dekorativ rangtasvirning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u yorug'lik sharoitida, aniq saxna ko'rinishida qabul qilinadi va u harakatda ham bo'lishi mumkin. Teatrda san'atdagi sintez muhim ahamiyatga ega: dekoratsiyalarning dinamik kurilishi musikaga va saxna harakatining ritmiga mos kelishi kerak. Spektaklning yaxlit obrazi dramaturgiya, musika, yorug'lik, dekoratsiya, kostyum va grim asosida yuzaga keladi.

Qo'llaniladigan texnikasi, uslublari va foydalaniladigan materiallariga qarab rangtasvirni quyidagi turlarga bulish mumkin: moybo'yoq li, temperali, mumli

(enkaustika), emalli, yelimli, quruq suvoqqa suv bo`yoqlar bilan ishlash (freska) va boshqalar. Ba'zi xollarda esa rangtasvirni grafikadan ajratish qiyin.

Rangtasvir bir qatlamli, ya'ni tez tugatiladigan va ko`pqatlamli va nozik nyuanslarni va ranglarning go`zal tuslarini bera oluvchi lessirovka usullariga bo`linadi.

Rangtasvir uchun zarur bo`lgan rangni rassom palitrada aralashtirib topadi, keyin bu bo`yoq kartina tekisligida rangga aylanadi. Bu yerda u rang tartibi - koloritni yaratadi. Ranglar aralashmasiga qarab u issiq va sovuq, quvnoq va g`amgin, tinch va harakatli, yorqin va to`q bo`ladi.

Rangtasvir juda qadimiy san'at. Uning asoslari qoyadagi tasvirlardan boshlanadi. Antik davr rassomlari rangtasvir asarlarida juda katta ta'sirchanlikka erisha olishgan, bu naturaga katta diqqat e'tibor qarashdan, shu bilan birga rangtasvir texnologiyasiga kiritilgan yangiliklar bilan bog`liq bo`lgan. O`rta asrlarda turli janrlardagi kartinalarning yaratilishi rangtasvir tarixini boyitdi. Keyingi yuz yilliklardagi turli oqim va yo`nalishlarda ijod qiluvchi rassomlarning ijodiy izlanishlari juda ko`plagan yangi rangtasvir oqimlarini (realizmdan abstraksionizmga) vujudga keltirdi.

Kuyi paleolit davrida yashagan odamlarning ijodida ularning hayvonlar dunyosi, tabiat haqidagi tasavvurlari o`z aksini topgan. Bu tasvirlarda asosan ov manzaralari aks etgan. Qoyalarda faqat rangtasvir asarlarigina emas, balki grafik va bo`rtma qoya tasvirlari ham saqlanib qolgan. Ibtidoiy davrlardagi qoya rasmlari o`zining mukammalligi, hayvonlar anatomiyasi, harakatining, jun fakturasining aniq berilishi va obrazli ta'sirchanligi bilan bizni hozirgi davrgacha lol qoldirib kelmoqda. Tasvirlar ma'naviy madaniyatimizni avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Antik davrlarda rassom dunyoni qanday ko`rsa o`shanday tasvirlashga harakat qilgan.

Yorug`-soya printsiplari, perspektiva elementlari, hajmli-fazoviy rangtasvirning paydo bo`lishi shular bilan bog`liq bo`lgan. Yunon rassomlari inson tanasining tuzilishi, proporsiyasi, harakat plastikasini o`rganishgan. Rassomlar

freskalardagi yunon vazalarida insonning xaqiqiy realistik tasvirlarini tasvirlashga erishishgan. Rangtasvir asarlarida borliqni tasvirlashning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi. Turar joylar, makbaralar, ibodatxonalar va boshqa inshootlar rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. U arxitektura va xaykaltaroshlik bilan badiiy, kompozitsiyani tashkil etgan.

O'rta asr rangtasviri diniy mazmunga ega bo'lgan roman davri va asosan gotika davrida san'at sobor uchun xizmat qilgan, shuning uchun ham rangtasvir asarlari bilan faqat soborlar bezatilgan. Undagi ranglarning jarangdorligi, asosan lokal ranglar ishlatilishi, konturlarining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kartina va freskalarning foni shartli, neytral yoki tillarang bo'lgan, Ranglarning simbolikasi katta rol o'ynagan.

Gotika rangtasvirida vitraj san'ati eng katta o'rin egallagan. Intererning sirli ko'lagasida oynalarni to'ldirib turuvchi vitrajlar yorqin ko'k, sariq, qizil ranglar bilan jilvalangan. U o'zgacha bir ruxiy sharoitni bergan. Hozirgi davrda Shartr soborida vitrajlarning eng go'zal namunalari saqlanib qolgan.

Gotika davri - kitob miniatyurasi va boshqa dekorativ - amaliy san'at turlarining gullagan davri bo'ldi.

Quyi gotika davri portretlari o'zining individual xususiyatlari, obrazlarining yuksakligi bilan ajralib turadi.

Gotika san'atida psixologik tushkinlikdagi lirizm va tragizm, yuksak ma'naviyat va sotsial satira, aniq hayotiy tuzatishlar va fantastika organik ravishda bog'lanib kelgan. Jamiyatda rassomlarga bo'lgan munosabat o'zgarib ketdi. Ularning mehnati e'tiborga olinib boshlandi.

Uyg'onish (Renessans) - jahon san'ati rivojidadagi eng buyuk davrlardan biri hisoblanadi. Uyg'onish davri Garbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari madaniyati tarixida o'rta asr madaniyatidan yangi davr madaniyatiga (Italiyada - XIV-XVI asrlar, boshqa mamlakatlarda - XV-XVI asrlar) o'tish davri bo'ldi. Uyg'onish davri ideallari insonparvarlik dunyoqarashi asosida ko'rildi.

Yangi tarixiy davrda antik davr merosiga qiziqish kuchayib ketdi. Rassomlar u davr asarlaridan faqat nusxa ko'chirib qolmasdan. Balki yangi pozitsiyada turib

ko`zdan kechirdilar. Inson va uni o`rab turgan dunyoni o`rganishga yo`naltirilgan insonparvarlik san'at printsiplari rivojlandi. Real dunyo va inson eng katta boylik sifatida ko`klarga ko`tarildi.

Bu yangi sistema ko`pchilikda qiziqish uyg`otgan plastik san'atda munosib o`rin egalladi. Tasviriy san'at turlari rorasida rangtasvir eng asosiy egalladi. Ayniqsa monumental (freska) rangtasviriga qiziqish orta bordi. Diniy va mifologik mavzulardagi rangtasvir kompozitsiyalarida portret, maishiy va tarixiy ko`rinishlarda dunyoviy uyg`unlik, antropotsentrizm (inson koinot markazida) o`z aksini topdi. Bu fikrlar Leonardo da Vinchi ijodida to`liq o`z aksini topdi. Masalan, "Joqonda" (Mona Liza) asarini o`sha davr simvoli sifatida ko`rish mumkin. Rangtasvirchilar yuksak maxorat bilan madonnalarni tasvirladilar. Ular bu yorqin, esda qoluvchi obrazlari orqali dunyoviy go`zallikni tarannum etishgan. Uyg`onish davri rassomlari ijodining markazida mustaqil, hartomonlama rivojlangan shaxs turgan. Yangi tasviriy sistema naturani urganish asosida ko`rildi. Hajmni tushunish va uni yorug`-soya yordamida masalasini Mazachcho birinchi bo`lib ilgari surdi. Ilmiy asoslangan chiziqli va havo perspektivasi, yorug`-soya qonuniyatlari yaratildi. Bu Yevropa san'ati (Frantsiya, Ispaniya, Germaniya, Angliya, Rossiya) ning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatdi.

Uyg`onish davri buyuk insonlari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelandjelo, Jorjone va Titsian, Tintorettolar o`z ijodlarida davrning yangi dunyo qarashini aks ettirdilar.

1.2. Rang simvolikasi va rang va san'atdagi sintez haqida tushuuncha

Rangni his qilish - halq badiiy madaniyatini aks ettirishdir. Odamlarda rangni qabul qilish individual xarakterga ega. U odamning jinsi, yoshi, kayfiyati, hayotiy tajribasi va ko'pgina boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga turli odamlardagi rangni qabul qilishda ko'pgina umumiylikni topish mumkin.

Rang orqali fikrlash va konstruktisyalash mumkin. Rang predmetning shaklini bera oladi, atrof-muhitni go'zalligini tasvirlaydi, hissiyotlarni, kayfiyatni, aniq emotsional holatni aks ettiradi.

Rang so'zi rangtasvir jarayonini ko'pgina sifatlarini aniqlaydi, shuning uchun ham rang san'atning bu to'rini asosi hisoblanadi. Rangtasvir uchun kerakli rang bo'yoqni palitrada aralashtirish orqali olinadi. Keyin rassom bo'yoqni kartinadagi rang tarkibi kolorit yaratish orqali kartina tekisligida rangga aylantiradi.

Asrlar davomida odamlar rangni turlicha qabul qilishgan. Qadimgi odamlar biz hozir ko'ra oladigan turli ranglarni sezishmagan. U davrlarda avvalambor eng yorqin ranglar - qizil va sariqni, keyinchalik esa ko'k va yashilni ko'ra boshlashgan. Masalan, qadimgi grek rangtasvirchilari faqat to'rt hil rang ishlatishgan: bular qizil, oxra, qora va oq ranglar. Keyinchalik palitradagi ranglar ko'paya borgan, lekin rassomlar juda ham ko'p vaqtlargacha yashil va ko'k rangni ajrata olishmagan, pushti va siyohrang bo'yoqlarni esa keyinchalik ajrata boshlashgan. Lekin bu faqat taxmin xolos.

Umuman olganda dunyoni rang-barang qabul qilish Shimol mamlakatlaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Chunki u yerlarda atmosferaning namligi yuqori bo'lganligi uchun rang tonlari bir-biriga yengil kirishib ketgan va rassomlar osmon, yer, dengiz va uzoqlarning boy rang jilvalariga diqqat bilan qaray boshlashgan. Bu keyinchalik Venetsiya, Parij, Amsterdam, Londonda koloritik rangtasvirning tug'ilishiga olib keldi. Eng muhimi rassomlar kartinani ochiq havo (plener) da ishlab boshlashdi. Bu ularning rangni yaxshi ajrata olish qobiliyatini o'stirdi.

Demak, odamlarning rangni qabul qila olishda tabiatning o'zi yordamga kelgan. Tabiatdagi ranglarning bir-biriga mosligi, uning yaxlitligi va uyg'unligi rassomga tabiat hodisalarini kartinaga tushirish yo'llarini izlashda yordam beradi. Rangni qabul qilish ko'p jihatdan rang tonlariga, uning yorqinligi va to'yinganligi darajasiga bog'liq. Rassom ranglarni kartinada ijod mahsuli sifatida qo'yish uchun tez-tez yangi vositalarni, texnikani izlab topadi.

Rang insonni quvontirishi va jahlini chiqarishi, qo'rquv, g'am yoki alam hissini uyg'otishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, rang odamlarga emotsional ta'sir o'tkazadi. Ba'zi ranglar nerv sistemasini tinchlantirsa, ba'zilari aks ta'sir ko'rsatadi. Yashil. osmon rang, ko'k ranglar tinchlantirsa, qizil. Zarg'aldoq, sariq ranglar hissiyotini qo'zg'otadi.

Ranglarning insonga ta'sirini birinchi bo'lib I.Gyote o'rgangan. U shoir sifatida yashil rang sahiylik, tinchlik, ko'zni va qalbni tinchlantiruvchi vosita deb bilgan. Ko'k rang sovuqlik hissini uyg'otishini, qizil rang esa aks ta'sir ko'rsatishini sezib bila olgan. M.Gyote bir hil manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa ranglarni shishadan kuzatishni yoqtirgan va bu holatda odamning emotsional holatini o'zgarishini kuzatgan.

Tasviriy faoliyatda qizil rang hissiyotini qo'zg'atuvchi, qizdiruvchi, tiriltiruvchi faol rang sifatida sariq rang esa - issiq, quvnoq, tektiklashtiruvchi, olov sahiy rang sifatida qabul qilinadi. Yashil rang ham xotirjamlik, yoqimli va tinch kayfiyatni yaratadi.

Ko'k rang esa jiddiy, qayg'uli, g'amgin, sentimental va tinch rang sifatida xarakterlanadi. Siyohrang qizil va ko'k ranglarning emotsional ta'sirini birlashtiradi. U bir vaqtning o'zida o'ziga tortuvchi va uzoqlashtiruvchi, hayotga to'lik, shu bilan birga g'am va qayg'uni keltiruvchi rang hisoblanadi.

Ranglarni qabul qilish ko'p jihatdan yorug'likka ham bog'liq bo'ladi. Agar biz qalamtasvirda masofani chiziqli perspektiva yordamida bersak, rangtasvirda esa bu holatni naturani rangli va tonli munosabatlaridagi o'zgarishlar asosida beramiz. Havo perspektivasi qonuniyatlariga ko'ra uzoq masofada turgan to'q rangli

predmetlar sovuq tusga, ko`pincha osmonrangga, yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi.

Bo`rtgan ranglar qatoriga, asosan issiq ranglar kiradi. Bunday rangli predmetlar o`zlari turgan joyga nisbatan yaqinroqda turganga o`xshab ko`rinadi.

Uzoqlashtiruvchi ranglarga sovuq ranglar kiradi. Sovuq rangli predmetlar esa xuddi uzoqlashganga o`xshab qoladi. Bu bilimlarni ijodiy qo`llash orqali kartina tekisligida chuqurlikni berish mumkin, yoki aksincha tasvirning biron-bir qismini yaqinlashtirish mumkin.

Buyuk rassom Rembrandt o`zining rangtasvir asarlarida yorug`likni juda muvaffaqiyatli qo`llagan. Uning kartinalari hamma vaqt ichki yorug`lik bilan yoritilgan. Unda tasvirlangan oddiy odamlar xuddi kartinadan nur taralayotganga o`xshab ko`rinadi. Rassomning buyukligi uning insoniyligidadir. U o`zining mo`yqalami bilan yorug`lik olib keladi. Rembrandt asarlaridagi yorug`lik inson qalbini ko`rishga yordam beradi.

Ranglarning yagona simbolik sistemasi hech qachon bo`lmagan, lekin asrlar davomida hammag tushunarli bo`lgan aniq rang simvollari paydo bo`lgan. Qadimdan insonlar ranglarga katta ahamiyat bergan. Quyida biz ba'zi ranglarning simbolikasini ko`rib chikamiz.

Qizil rang - bu olov, issiqlik, quyosh, qonimiz rangi, demak hayot rangi hisoblanadi.

Qadimdan olov inson taqdirida muhim rol o`ynagan. Ibtidoiy davrlarda ham qizil bo`yoq ulug`lik va yorug`likni, shuningdek xavf - xatar belgisini bildirgan.

Svetoforming qizil signali ham to`xtash lozimligini bildiradi. bizning Atrofimizdagi xavf-xatarning rang signallari qizil rangda.

Qizil rang tantanani aks ettiradi, hurmat va ehtiromni bildiradi, shuningdek uni qirollar ranggi deb atashadi. Ba'zi mamlakatlarda hurmatli mehmonlar oyog`i ostiga hurmat belgisi sifatida qizil gilamlar to`shash an'anaga aylangan. Ko`pgina qirollar qizil rangli mantiya osib yurishni ma'kul ko`rishgan, fors shohlari esa oltin qushlar tikilgan qizil kiyim kiyishgan.

Xitoyda - qizil rang Feniks qushi ramzi hisoblanadi. Bu qush o`zini yoqib, keyin kuldan qaytadan tug`ilish qobiliyatiga ega bo`lgan. Yaponiyada esa quyoshga sig`inishlari sababli, qizil rang hosil va to`qlik keltiruvchi quyosh rangi hisoblangan. Yaponlar qizil rang yovuz kuchlar va falokatdan, kasallik va baxtsizlikdan asrashiga ishonishadi. Yaponiyaning davlat bayrog`ida quyoshning qizil halqasi tasvirlangan.

Qizil - bayroqlar rangi. Qizil rangdagi havo sharlari va bayroqchalari bayram kayfiyatini yaratadi.

Rus halqining madaniyatida qizil rang xavf-xatardan saqllovchi rang hisoblangan. Dehqonlarning kiyimlari ho`jayini yovuz kuchlardan saqllovchi qizil iplar bilan tikilgan. Shuningdek qizil rang sevgi - muhabbat ramzidir. Qizil atirgullarni sevgi belgisi sifatida taqdim qilishadi.

Zarg`aldoq rang ham quyosh rangi sanaladi. Bu muvaffaqiyat va zafar keltiruvchi quvnoq rang. Qadimda cho`pon va dehqonlarning hayoti tabiat kuchlariga, asosan quyoshga bog`liq bo`lgan. Afsonalardagi barcha quyosh xudolari oltinrang kiyimlar kiyib, oltin aravada yurishadi.

Tabiatda zarg`aldoq ranglar juda kam. Yo`l ishchilarining kiyimlari ham zargaldoq rangda bo`ladi, chunki zargaldoq rang uzoqdan ko`zga yaxshi tashlanadi. Bu esa yo`ldagi har hil halokatlarning oldini oladi. Birinchi kosmonavtlarning kiyimlari ham zarg`aldoq rangda bo`lgan, chunki shunda ular yerga qo`nganidan so`ng topish osonroq bo`lgan.

Sariq rang ko`pgina tushlarga ega. Quyosh yorug`ligining rangi sariq rangga mos keladi. Qadimgi davrlardan sariq rang ilohiy va tilla rang hisoblangan.

Bundan tashqari yorqin va tiniq sariq rang yuqori ijodiy yuksaklik va haqiqat hissini beradi. Avstraliyaning yerli halqi uchun esa sariq rang hayot rangi hisoblanadi. Shuning uchun ham avstraliya bayrog`ining o`rtasida sariq rangli aylana joylashgan. Shu bilan birga turli halqlar madaniyatida sariq rang sahiylik, qo`rkoqlik va qo`rquvni bildiradi.

Ko`pgina rassomlarning kartinalarida Iuda sariq rangli kiyimda tasvirlangan, chunki u Iisusga sotqinlik qilgan.

Ko`pincha sariq rangli gullarni o`zlari yoqtirmaydigan odamlarga sovg`a qilishgan.

Yashil rang - tabiat, hayot, abadiylik rangi. Bu Yerdagi hayotni ularsiz tasvavvur qilib bo`lmaydigan yashil o`simliklar (yaproqlar, o`t-o`lanlar, shoxlar va hokazo) dunyosi. Yashil - yangilanish, tug`ilish, yoshlik, usmirlik, umidlar ramzi. Yashil rangni ekologik tashkilotlar o`zlarining simvoli sifatida qabul qilishgan. Masalan Grinpis (inglizchadan "Yashil") halqaro harakati tabiat, o`rmonlar, dengizlarni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazish uchun harakat qilishadi.

Osmon rang va ko`k rangi - osmon va suv, muomala va hissiyot rangi hisoblanadi. Osmonrang tonlar yengillik, tozalik, salkinlik hissiyotini uygotadi. Ko`k rang abadiylik va turg`unlik, sir va haqiqatni bildiradi.

Siyohrang - faylasuflar va shoirlar, haqiqatni tushunish rangi. Chiroyli va toza siyohrang insonning intellektual qobiliyatlari bilan bog`liq.

Oq rang - tozalik, mayinlik va haqiqat rangi. Shuning uchun ham ko`pgina mamlakatlarda kelinlar oq rangli libos kiyishadi. Ko`pgina Xitoy, Osiyo va Afrikaning issiq mamlakatlarida oq rang motamni bildiradi. slavyanlar vafot etgan odamlarga oq kiyim kiygizishadi.

Qora rang - motam va qayg`u rangi. Yevropa mamlakatlarida motam marosimlarida qora kiyim kiyiladi. Bundan tashqari qora rang tantanavorlik va talabchanlikni ham bildiradi. qora rangli kuylaklar ishga yoki tantanali uchrashuvlarda kiyiladi. Masalan, simfonik orkestr dirijyori albatta qora frak kiyishi lozim.

An'ana va bayramlarda rangning roli juda katta. Turli halqlarda bitta rangga turlicha ta'rif berilishi mumkin. Hatto zamonaviy meditsinada qadimgi tabobat asosida turli kasalliklarni rang bilan davolashadi.

Tasviriy san'atda asarning fikriy-obrazli mazmunini ochib berishda rang muhim rol o`ynaydi. Buni qizil rang misolida ko`rib chiqamiz. Bu juda ham mazmunli, sirli va ajoyib rang! Yuqorida aytib o`tganimizdek qizil rang quvonch va qayg`u, kurash va g`alaba, urush va sevgini, hayot va o`limni, olov va yorug`likni bildiradi.

XVIII asr rangtasvirida qizil rang boylik, aristokratizmni bildirgan, faqat ayollar va bolalar portretlarida sevgi va qalb go`zalligini bildiradi.

XIX asrning birinchi yarmidagi romantik rangtasvirda qizil rang ilohiy sevgini emas, balki haqiqiy sevgini aks ettiradi.

K. Bryullovning "Pompeyaning so`nggi kuni" nomli asarida qizil rang ko`pgina insonlarning hayotini olib ketgan falokatni ko`rsata olgan. XIX - XX asrlarga kelib qizil rang revolyutsiya rangi hisoblangan. Petrov - Vodkinning "Qizil otni cho`miltirish" nomli asari yaqinlashib kelayotgan qonli voqea - urush va revolyutsiyani aks ettirgan. Yangi davr mazmun mohiyatini aks ettirishning simvoli sifatida Malevichning "Qizil kvadrat" kartinasini olish mumkin.

Ulug` Vatan urushi davrida qizil rang qahramonlik rangi sifatida g`alabaga chaqirgan. Masalan, "Ona Vatan chorlaydi!" nomli plakatni bunga misol qilish mumkin.

XX asr rangtasviri o`zida barcha badiiy oqim va yo`nalishlarni mujassam etgan bo`lib, ranglarning ko`p qirraligini an'anaviy va yangi vositalar orqali ochishga harakat qilmoqda.

Rangning sehrli kuchini yana bir qirrasini ko`rib chiqamiz. U turli san'atlarning o`zaro aloqasidan paydo bo`ladi.

Guruhlar ichidagi san'at ham birlashishi mumkin. Bu plastik san'at bilan vaqtinchalik san'atning birlashishidir. Plastik san'at guruhidagi sintez me'morchilik asosida amalga oshadi. U ko`pincha rangtasvir, grafika, amaliy san'at yoki dizayn asarini birlashtiradi.

Turli guruhlarga kiruvchi san'atlar orasida ham sintez bo`lishi mumkin. Bunga bir necha namunalar keltiramiz. Masalan, tasviriy san'at hayotning turli tuman ko`rinishlarini aks ettirishi bilan birga, musiqa bilan birlashishga intilgan.

Musiqaning rangtasvir, grafika va xaykaltaroshlik san'atiga ta'siri musiqani his qilishning turli shakllarining (she'r yozish, musiqa tinglash, ijro etish) rassomlarga ilhom baxsh etib, asar yaratish uchun mavzu berishidan boshlangan. Qadimgi davrlarda yaratilgan tasvirlar va bo`rtma tasvirlarda turli urf-odat va an'analar,

shoxlarning ziyofatlari va bayramlari aks bo`lib, unda musiqachilar ham tasvirlangan.

Qadimgi Gretsiya san'atida ham teatr tomoshalari va sport musobaqalarida musiqa chalayotgan musiqachilarni tasvirini uchratish mumkin. Bunday kartinalarni faqatgina relief yoki binolarga chizilgan tasvirlardagina emas, balki tuvaklarga ishlangan rasmlarda ham uchratish mumkin.

Gotik soborda o`tkaziladigan marosimlar odamlarda juda kuchli tassurot qoldirgan. Marosimda ijro etiladigan xor va organning ovozi rangli vitrajlardan o`tuvchi yorug`lik bilan garmonik munosabatda bo`lgan. Bularning hammasi badiiy yaxlitlikni tashkil qilgan.

O`rta asrlarda va Uyg`onish davrida rangtasvir va xaykaltaroshlikda ko`pincha kuylayotgan va nay chalayotgan farishtalarni, bayramlardagi halq kushikchilari va musikachilarini, raqsga tushayotgan yoki volynka, skripka, klavesin, violada musiqa chalayotgan odamlarini tasvirlaganlar.

Qadimgi davrlardan musiqa homiysi Muzaning allegorik tasviri qandaydir musiqa asbobi bilan tasvirlangan.

Musiqa va rangtasvir eng avvalo fikrlar, obrazlar, dramaturgiya, hissiyotlarning mazmunini birlashtiradi. Bundan tashqari kompozitsiya, ritm, garmoniya, dinamika, bo`yoq kabi vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada har ikkala san'atning sintezi hosil bo`ladi. San'atdagi xaqiqiy sintez chin mu'jizani yarata oladi.

XIX - XX asrlarga kelib rangtasvirda "musiqa" tendentsiyasi rivoj topdi. V.M. Vasnetsov shunday degan edi. "Mening kartinalarimda hammavaqt musiqa his kilinishini xohlar edim". Rassom A.Savrasov o`z kartinalarida rus tabiatini musiqasini his qilib, tasvirlab bera oldi.

Masalan, uning "Qora qarg`alar uchib keldi" nomli asarida bahor musiqasini his qilish mumkin. Unda tomchilar jarangi, suvning shildirashi, qayinlar shoxlarining shovillashi, qarg`alarning g`ovur-g`uvo`rini eshitish mumkin.

Rassomlardan M.Vrubel, M.Chyurlenislar o`z kartinalarida rang va tovush orasidagi o`zaro uyg`unlikni bera olgan. M. Chyurlenis o`z kartinalariga "Prelyud", "Sonata" kabi nomlar bergan.

Chyurlenisning obrazli dunyosi bu orzular, uyg`unlik, fantastikaning go`zal qorishmasi hisoblanadi. Uning "Bahor sonatasi", "Yoz sonatasi", "Quyosh sonatasi", "Yulduzli sonata", "Ilon sonatasi", "Piramida sonatasi", kabi asarlari mavjud. Bu har bir sonataning bo`limlari musiqa terminlari (Allegro, Andante, Scherzo, Finale) bilan nomlangan. Har bir kartinada aniq kayfiyat, lirik hissiyot hukm suradi. Bu kartinalarda ritm katta rol o`ynagan. Masalan, "Dengiz sonatasi" turli - tuman ritmlarga ega. Unda tulkinlar, kemalar, suvlar, qirg`oqlar ritmi mavjud.

Kompozitor A.N. Skryabin o`z asarlarini rangni yorug`lik bilan hamkorlikda toshoshabinga yetkazgan. Musiqa va rangli yorug`lik yaxlit obraz yaratgan.

XX asrga kelib musiqa, rang va yorug`likning sintezi fikri juda keng tarkaldi. Masalan, dunyonining ko`pgina shaharlarida kuylovchi, rangli musiqali fontanlar qurilgan. Unda musiqa, suv ritmi va rang bir-birini to`ldiradi. Musiqasiz bu san'at asari o`zining obrazli ahamiyatini yo`qotadi.

Avangard yo`nalishdagi bu yangi shakllar rassom va tomoshabinni o`zaro dialogi va aloqasiga asoslangan.

II-Bob. Tasviriyy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari

2.1. Rangtasvirda kompozitsiya qonunlari va vositalari

Tasviriyy san'atda kompozitsiya asarning fikriy- g'oyaviy mazmunini juda aniq va ishonarli qilib berish zarurligi bilan bog'liqdir. Kompozitsiyaning asosiy maqsadi - badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Turli davrlar va turli - tuman yo'nalishlarda yaratilgan kartinalar o'zining aniq kompozitsion tuzilishiga ko'ra juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Haqiqatan ham Ya. Vermeerning "Xat ushlagan qiz", Katta Piter Breygelning "Dehqonlar raqsi", A.A. Ivanovning "Iso Masihning xalqqa ko'rinishi", K.Petrov-Vodkinning "Qirg'oq", V.Surikovning "Boyor xotin Morozova", R.Ahmedovning "Onalik.Tong", A.Abdullayevning "Abror Hidoyatov Otello rovida" kabi kartinalarida biron-bir narsani, masalan, xolst o'lchamini, to'q va och dog'lar munosabatini, figuralar sonini, ufq chizig'i balandligini va hokazolarni, o'zgartirsak kompozitsiyaning yaxlitligi va qismlarining muvozanati buzilib ketadi.

Shunday qilib, kompozitsiyaning tugallangan yaxlitligini aniqlab beruvchi quyidagi sharoitlarni ajratib ko'rsatish mumkin: asarning biror-bir qismi uning yaxlitligiga zarar yetkazmasdan o'rin almashtirishi mumkin emas; biror-bir yangi element yaxlitlikka zarar yetkazmasdan qo'shilishi mumkin emas.

Shuning uchun ham namuna sifatida turli yo'nalishlarda yaratilgan asar olinganligi bejiz emas. Tugallangan asarga o'zgarish kiritish zarurati tug'ilmasa, demak asar kompozitsiyasi juda to'g'ri qurilgan hisoblanadi.

Kompozitsiya turli qismlarni biron-bir fikriy - g'oyaviy mazmunga moslab tuzish, biriktirish va joylashtirishdir. Tasviriyy san'atdagi kompozitsiya - bu badiiy asarni uning mazmuni, xarakterli va maqsadiga asosan tuzishdan iboratdir.

"Kompozitsiya" so'zi tasviriyy san'atda termin sifatida Uyg'onish davridan boshlab ishlatilib kelinadi.

Asarni tushunish va uni qabul qilish uni kompozitsiyasiga bog'liq bo'ladi. Badiiy faoliyatda asar yaratish jarayonini kompozitsiya tuzish deb atash mumkin.

Kompozitsiya xuddi daraxt tanasiga o'xshab tasviriy shaklning ildizi va shoxlarini organik bog'laydi, uning elemnetlarini bir-biriga bo'ysundirib beradi. Demak, tasvirlash bu qismlar orasida munosabat o'rnatish, ularni bir butun qilib bog'lash va umumlashtirishdir. Shu bilan birga kompozitsiya asarda qo'llanilgan rasm, rang va syujetni birlashtirib, ularning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Shuningdek kompozitsiya tasviriy savodxonlikning eng asosiy elementini belgilaydi.

Tasviriy san'atda mustaqil ijod aniq bilimlar asosida paydo bo'ladi. Asrlar davomida rassomlar juda ham ta'sirchan bo'lgan kompozitsiya sxemalarini izlashgan. Shu tajribalardan ma'lumki tasvirdagi eng muhim syujetning elementlari tasodifan joylashmaydi, balki o'ylab tuziladi.

Unda oddiy geometrik figuralar (uchburchak, piramida, aylana, aval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) hosil qilinadi.

Bunga misol qilib N.Pussenning "Arkad cho'ponlari" (kvadrat) kartinasini, Leonardo da Vinchining "Qoyadagi Madonna" (piramida), Yan Van Eykning "Kantsler Madonnasi" (to'g'ri to'rtburchak), K.D. Fridrixning "Qoyali Qirg'oq" (aylana), P. Sezanning "Karta o'ynovchilar" (kvadrat), A.Vattoning "Sevgi gammasi" (uchburchaklik), A.Matissning "Raqs" (aval) asarini keltirish mumkin.

Kompozitsiyada harakatsiz, turg'un obrazli berish uchun, yopiq statik kompozitsiya tuzish zarur bo'ladi. Chiziqlar asosan markazga yo'naltiriladi. Berilgan vazifa simmetriyani hisobga olgan holda aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida kompozitsiya qurish orqali hal qilinadi.

Agar panorama ko'rinishidagi manzara qurish zarur bo'lsa, uni chekkalarini biron-bir daraxt yoki bino bilan to'ldirish shart emas, yaxshisi uni ramkaning chekkalariga tomon ketuvchi qilib tuzish zarur. Bu ochiq kompozitsiya deb ataladi. Undagi chiziqlar markazdan yo'naladi. Agar uzoqdagi ko'rinib turuvchi ufqning oldidan biron - bir daraxt yoki predmetni joylashtirsak kompozitsiya juda ta'sirchan chiqadi.

Kartinalarda qiziq kompozitsion topilmalar juda ko'p uchraydi. Kompozitsiya fakatgina uchburchak, aylana, oval va boshqa geometrik shakllardan emas, balki bir necha hil shakllar orkali ham berilishi va bir kartinaning o'zida boshqa hil ham kompozitsion sxemani berish mumkin. Masalan, kartinadagi voqealarning birligi kompozitsiyani shartli triptix printsipi asosida qurish imkonini beradi.

Bunday holatda asosiy figura yoki asosiy voqeaning o'ng va chap tomonidan unga bog'lik bo'lgan guruhlar joylashtiriladi. Bunga misol qilib Botticellining "Veneraning tug'ilishi" asarini keltirish mumkin.

Bu kartinaning markazida hozirgina dengizdan tug'ilgan va dengiz chig'anog'ida turgan Venera tasvirlangan, chap tomonda dengiz tomondan unga qarab uchib kelayotgan va gullar ekayotgan Zefir tasvirlangan. O'ng tomonda unga qarab kelayotgan va simmetrik joylashtirilgan nimfa tasvirlangan. Qo'lida Veneraning ustini yopish uchun pushtirang yopinchoq ushlab turibdi. Chekkadagi profil figuralar tamoshabinga qarab turgan asosiy obrazga yo'naltirilgan. Dengizdan tug'ilgan sevgi xudosi - kompozitsiyaning asosiy mazmuni hisoblanadi.

Kartina yopiq kompozitsiya uslubida qurilgan. Figuralar bitta frontal tekislikda joylashgan bo'lib, oval shakliga joylashtirilgan.

Murakkab dinamik kompozitsiyalarda harakatning turli shakllari qo'shib keladi. Bunday holatda figuralar bir-birini to'sib qolmasligi uchun yuqori nuqtadan qarab tasvirlash tavsiya qilinadi.

Tintoretto o'zining "Sirli oqshom" asarini xuddi shu uslubda yaratgan. Lekin bulardan kompozitsion sxemalarga katta e'tibor berish zarur degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Rassom asar yaratar ekan eng avvalo kartinaning mazmun-mohiyatini o'ylab ko'rib obraz yaratishi lozim.

Kompozitsiya vositalari yordamida oralig'ini yillar, asrlar ajratgan voqea va hodisalarni ham bir sathda joylashtirish mumkin. Bu usullardan qadimgi rusda ikonaga rasm soluvchi rassomlar keng foydalanishgan. Masalan, ular uch yarusli kompozitsiyadan foydalanishgan, unda xuddi uch hil kartina ketma-ket joylashganga o'hshaydi, lekin shu bilan birga ular bir yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi. Ularda turli davrlar aks etadi.

Kompozitsiyaning yana bir keng tarqalgan turlaridan biri bu turli davr va turli joylarda bo`lib o`tayotgan voqealarni yaxlit qilib tasvirlashdir. Bunday tasvirlarda asosiy obraz yirik qilib o`rtada joylashtiriladi, kichikrok tasvirlar esa uning chekkalariga joylashtiriladi.

Bunday misollarni kitob grafikasi, xalq amaliy san'ati, ikona rasmlari va san'atning boshqa turlarida uchratish mumkin.

Biz muntazam o`zgarib turuvchi dunyoda ishlayapmiz.

Kartinada vaqtni harakatini berish orqali tasvirlash mumkin. Rangtasvir, freska, miniatyurada harakat syujetning holatiga qarab qabul qilinadi. Inson xarakterli va voqealarning chuqurligi kartinadagi aniq harakatda yorqin namoyon bo`ladi. Hattoki ba'zi rassomlar portret, natyurmort va manzarada ham tasvirni dinamika bilan to`ldirishga harakat qilishadi. Bunday asarlarga qarab, hozir nima bo`lgani, keyinroq nima bo`lishini tasavvur qilish mumkin. Syujetning dinamikligi qandaydir ob'ektlarning joylashishidagina emas, balki ularning ichki holatini aks ettirishidan ham kelib chiqishi mumkin. Harakat aks etgan kompozitsiya dinamik kompozitsiya deyiladi.

Kompozitsiya har doim rassom oldiga murakkab vazifalarni qo`yadi. Ular aniq, original va takrorlanmas qilib hal qilishi lozim.

Kompozitsiyaning asosan to`rtta qonuni mavjud: yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog`liqligi qonuni.

Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o`y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko`rinishiga e'tibor beramiz va bo`laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o`zaro bog`liqligidir. Unsurlarning uyg`unligi o`zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir.

Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi.

Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi.

Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv- fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi.

Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi.

Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi.

Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi fakatgina mantiqan emas, balki uyg'unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega.

Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog'i, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog' yoki siluetga birlashishi o'zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyeu portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan.

Kompozitsiyadagi tipiklashtirish qonuni uchta asosiy belgilari bilan xarakterlanadi.

Birinchi belgi - kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonunning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdir. Bunga misol qilib A.K. Savrasovning "Qora qarg`alar uchib keldi". I.I. Levitanning "Qaynizor" kabi asarlarini olish mumkin. Bu asarlar juda mazmundor, qiziqarli, go`zal bo`lishi bilan birga, rus tabiatining tipik obrazini ochib beradi.

Tipiklashtirish qonunining ikkinchi belgisi san'at asarida harakatni berish, vaqtni ko`rsatib bera olishdir.

San'atning tomosha qilinuvchi, sintetik turlaridan (teatr, kinematograf) farqli ravishda tasviriy san'at syujetning rivojlanishidagi faqat bitta momentni. Hodisani o`zgarmas holatda tasvirlab beradi. Shuning uchun ham biz tasviriy san'atda harakatni berish to`g`risida gapirganimizda, harakatni his qilishni nazarda tutamiz.

Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo`lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonuning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko`rinishi tasvirlanadi.

Mana shuning uchun ham rassom hayotini harakatda. Yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko`p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin.

Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o`tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning paydo bo`lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o`g`liga intilgani, xotini esa royl chalistidan to`htab, o`girilib qarab turgani tasvirlangan.

Keyingi harakatda esa tasvirlanmagan bo`lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko`z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning

kulminatsion nuqtasi aniq ko`rinib turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan.

Rassom Yu.I. Pimenov o`zining "Yangi Moskva va Kechagi ko`chadagi to`y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko`rgan tomoshabin voqealar xuddi ko`z oldida bo`lib turgandek his qilinadi.

Tipiklashtirish qonuning uchinchi belgisi uning yangiligidir.

Realistik san'at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko`rsatib bera oladi.

Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o`zlashtirish - san'atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o`ziga-o`zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o`zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A.A.Plastov, o`zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O`.Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go`zal holatda ko`ramiz va his qilamiz.

Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko`rsatib beradi. Kompozitsiyada qarama-qarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da Vinchi o`zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to`g`risida yozib qoldirgan.

Mikelandjelo o`z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e'tibor bergan. U o`z asarlarida hajmli figuralarning ko`rinishini ozg`in figuralar yoki yassilik orqali bo`rttirib ko`rsatgan.

Inson o`z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san'atda juda katta ahamiyatga ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug` va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug`-soyaning yo`qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi.

Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan.

Ular o'z asarlarida to'q rangli fonda yorqin figurani tasvirlashgan. XIX asrga kelib esa rassomlar portretida yorqin on qo'llay boshlashgan. V.A. Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli asarida yorqin fonda qizning yuzi yengil siluetda tasvirlangan.

Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'k-zarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin.

Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi.

Monumental asarlar ham kontrastlar asosida quriladi. Bu yerda uzunlik kontrasti katta ahamiyatga ega. Masalan, monumentalist - haykaltaroshlar mayda shakllarni yirik monumentlar oyog'i ostiga qo'yishadi.

Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye.A. Kibrik shunday deydi: "Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, dehqon yoki turma" vagonida hibsga o'tirgan mahbusga perronda uchib yurgan ozod kabutarlar kontrast bo'la oladi. Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi.

Shunday qilib kompozitsiyada kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sir qiladi.

Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy-g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik - o'lik sxemaga emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak.

San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning kompozitsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning

eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu ob'ektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi.

Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimetriyasini hisobga olishni talab qiladi.

U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin.

Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko'rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo'lishi juda zarur.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan qonunlar abstraktsionizm va naturalizmga juda begonadir.

Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to'plagan boy materialni sistemali ravishda san'atga qaytaradi. San'at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega.

Kompozitsiyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim.

Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriyl asosi hisoblanadi.

Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3).

Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi.

Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik.

Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari tsiklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Musiqadagi kabi tasviriy san'atda ham ritmlar faol, uzuk-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi.

Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishidir.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko'rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi.

Ritm chiziqlar, dog'lar, yorug'lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Kompozitsiyada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo'li yoki oyog'i va hakoza.

Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi.

Ritmlar dekorativ - amaliy san'atda muhim rol o'ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko'plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan.

Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi?

Bu bizning ko'ruv organizmining xususiyati bilan bog'liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o'ziga o'hshash boshqa elementga tushar ekan, o'zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to'lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to'lqindan ikkinchisiga o'tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo'ladi.

Tasviriy san'at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san'at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob'ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to'g'risida juda ko'p vosita va priyomlarni bilishadi.

Quyida biz ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda ob'ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko'rinadi:

- Agar kartinada harakat yo'nalishi bo'yicha bitta yoki bir nechta diagonal chiziqlardan foydalanilsa;
- Agar harakatlanayotgan ob'ekt oldida bo'sh masofa qoldirsak;

- Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa.

Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko`rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi.

Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo`lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob'ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob'ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to`htab qolgandek tuyuladi.

Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo`nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog`oz sathining chuqurligiga yo`nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to`lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta'sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob'ektning silliq bo`yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo`llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to`htatib qo`yadi. Harakat yo`nalishini o`zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya statik hisoblanadi.

- Agar kartinada diagonal yo`nalishlar yo`q bo`lsa;
- Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo`lsa, harakatning kulminatsiyasi bo`lmaydi;
- Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to`g`ri to`rtburchak) asosida qurilgan bo`lsa.

Tinchlik hissi san'atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo`lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo`nalishlarning ko`pligiga qaramay, changi qo`shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko`ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-

biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan.

Rassom kompozitsiya yaratar ekan, kartinada eng asosiysi nima bo`lishini va bu asosiy syujetni ya'ni "mazmun markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko`rsatish to`g`risida o`ylashi lozim.

Albatta syujetda hamma narsa bir hil muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy syujetga bo`ysunadi. Kompozitsiyaning markazi asosiy harakat bilan unda qatnashuvchi asosiy shaxslarni o`ziga boglaydi. Asardagi kompozitsion markaz o`ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug`lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajaratiladi.

Kompozitsiya markazi faqat rangtasvir asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'at, me'morchilikda ham ajratiladi. Masalan, Uyg`onish davri rassomlari kompozitsiya markazi xolstning markazida turishini hoxlashgan. Bosh qahramonni holstning markazida tasvirlash orqali rassomlar uning syujet uchun muhim rol Uyg`onishni ta'kidlamoqchi bo`lishgan.

Rassomlar kompozitsiya markazini xolstning hoxlagan joyiga qo`yib kartina yaratish uslublarining ko`pgina variantlarini ishlab chiqishgan. Bu priyom V.Surikovning "Boyar xotin Morozova" kartinasida harakat, voqealarning dinamikasi, voqealarning tez rivojlanishini berishda muvaffaqiyatli qo`llanilgan.

Rembrandtning "Oq padarning qaytishi" nomli asarida asosiy fikrni aniq ochib berish maqsadida asosiy qahramonlar markazdan chetga surib ishlashgan. Unda uyning bo`sagasida dunyoni darbador kezib kelgan ota va o`g`ilning uchrashuvi tasvirlangan. Darbador o`g`ilning ko`rinishiga qarab uning ogir yo`l bosib kelganini bilish mumkin. Chuqurli birinchi plandan boshlab rang va yorug`lik kontrastlarini kamaytirish hisobiga ochib berilgan.

Ko`zi ko`r bo`lgan ota kechirganini belgisi sifatida o`g`ilning yelkasiga qo`lini qo`yib turibdi. Bu harakat orqali yillar orqali to`plagan qayg`u-alamni, donolikni ko`rish mumkin. Rembrandt kompozitsiyasidagi asosiy markazni yorug`lik bilan ajratib ko`rsatilgan. Kartinaning kompozitsion markazi juda chetda joylashgan. Rassom kompozitsiyadagi muvozanatni o`ng tomonda turgan katta

o`g`ilni tasvirlash orqali bergan. Kompozitsiyadagi asosiy markazning berilishi "Oltin jism" qoidasiga to`g`ri keladi. Qadimdan rassomlar taassurotni kuchaytirish uchun qo`llashgan.

Kompozitsiyadan markazni ko`rsatish uchun tasvirning muhim elementi oltin kesim nisbatiga to`g`ri keladigan holda ya'ni $1/3$ nisbatda joylashtiriladi. Agarda uygunlikka erishish uchun tasvirlanayotgan ob'ektlarning nisbiy munosabatlari oltin kesim qoidasi asosida kurulishi lozim.

Ikkita va undan ko`proq kompozitsion markazlar berilgan kartinalar orqali bir hil vaqtda bo`lib o`tayotgan bir necha voqealarni ko`rsatish mumkin.

Asardagi asosiy voqeani ochib berish uchun bir necha vositalardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Izolyatsiya" priyomidan asosiy tasvirni boshqa predmetlardan ajratib tasvirlashlar asosiy o`lcham va rangni ajratib tasvirlash qo`llaniladi.

Eng asosiysi kartinadagi syujetli kompozitsion markazda asarning asosiy mazmun va goyasini berish muhim hisoblanadi.

Turli davr rassomlari kartinani simmetrik qurish uslubidan foydalanganlar. Qadimgi mozaikalar kompozitsiyasi simmetrik qilib qurilgan. Uyg`onish davri rangtasvirchilari ham o`z kompozitsiyalarini simmetriya qonuni asosida qurishgan. Bunday qurish tinchlik, ulug`vorlik, turg`unlik, tantanavorlik taassurotini berishda yordam beradi. Simmetrik kompozitsiyada odamlar va predmetlar kartinaning markaziy o`qiga nisbatan bir-biriga yonma-yon qo`yib joylashtiriladi.

San'atdagi simmetriya hayotdagi simmetrik shakllarni ko`rsatuvchi real voqealikka asoslanadi. Masalan, inson qomati, kapalak, qor shakli simmetrik qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalar statik (turg`un) bo`lib, chap va o`ng tomonlar bir hil og`irlikda bo`ladi.

Assimmetrik kompozitsiyada esa ob'ektlar asarning syujeti va mavzusiga qarab turli - tuman bo`lishi va chap va o`ng tomonlari esa muvozanatda bo`lmaydi.

Simmetrik kompozitsiyaning barcha qismlari bir hil muvozanatda, assimmetrik kompozitsiya muvozanatda va muvozanatsiz bo`lishi mumkin.

Kompozitsiyadagi katta yorqin dog`, kichik to`q rangli dog` bilan muvozanatda bo`ladi.

Kompozitsiyada muvozanat og`irligi, toni va rangiga ko`ra beriladi. Muvozanat figuralarning o`ziga va ular orasidagi masofalarga ham tegishli bo`ladi.

Maxsus mashqlar kompozitsiyadagi muvozanatni sezish hissini rivojlantiradi. Katta va kichik o`lchamlarni, yorqinlik va to`qlikni, turli-tuman siluetlar va rang dog`larini muvozanatga keltirishni o`rganish juda muhim. Shu yerda halinchak uchganda muvozanatni topish tajribasini eslash juda foydali bo`ladi. Unda halinchakni bir tomoniga kattaroq bolani o`tirg`izib, narigi tomoniga ikkita kichkina bolani qo`yib muvozanatni saqlash mumkin. Kompozitsiyadagi og`irlik bilan ham xuddi shunday eksperiment o`tkazish mumkin.

Bunday tenglashtirish kartinaning turli qismlarini o`lchamlari, toni va rangiga ko`ra muvozanatga keltirishga yordam beradi. Bu esa kompozitsiyada muvozanat va uyg`unlikka erishishga yordam beradi.

Assimmetrik kompozitsiyada fikriy-hayoliy markaz kartinaning chekkasiga yaqin bo`lsa muvozanat umuman bo`lmaydi. Agar kartinaning oynadagi aksiga qarasak taassurotimiz umuman o`zgarib ketadi. Bu xususiyatni kompozitsiyada muvozanatni izlash jarayonida e'tiborga olish lozim.

Kompozitsiyadagi qonunlar, qoidalar va vositalar rassomlarning ko`p asrlik boy ijodiy tajribasiga asoslangan, lekin kompozitsiya texnikasi bir joyda to`htab qolmay keyingi rassomlarning ijodiy adabiyoti bilan muntazam rivojlanib bormoqda. Kompozitsiyaning qandaydir qonun va qoidalari klassika darajasiga ko`tarilgan bo`lishi mumkin, lekin yangidan-yangi qoidalar ham paydo bo`ladi, lekin hayot san'at oldiga yangidan-yangi vazifalar qo`ymoqda.

2.2. Tajriba sinov ishlari va uni o'tkazish metodikasi.

Tajriba sinov ishlarini bazasi etib, Guliston saxridagi 16-o'rta maktab tanlab olindi. Biz tadqiqot mavzusini yanada oydinlashtirib olish uchun 2 ta namunali 7-sinflarni tanlab oldik. 7-a sinfida an'anaviy usulda, 7 –b sinfda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarini olib bordik. Shundan so'ng o'quvchilarni olgan nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida ikkala sinfga ham bir xil test topshiriqlari berildi. Test natijalari tekshirib ko'rilganda sinflardagi sifat o'zlashtirish ko'rsatkichi quydagicha ko'rindi. (1-jadval)

1-jadval

Sinflar	O'quvchilar soni	“5”-a'lo	“4”-to'rt	“3”-uch	Sifat o'zlashtirish
A	B	V	D	E	$(100/B)*(V+D)$
7 “A”	32	10	11	11	65,6%
7 “B”	32	17	13	2	93,7%

Jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki sinflardagi o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari 7 “A” sinfda -65,6 %, 7 “B” sinfda 93,7 % tashkil etmoqda.

Tajriba-sinov ishimizning ikkinchi bosqichida 2 ta sinf o'quvchilariga bir xil mavzuda rangtasvirda natyurmort chizish vazifasi topshirildi. Bunda ham dars o'tishning an'aviy hamda zamonaviy usullaridan foydalanildi. Ushbu bosqichlarida o'quvchilarni bilim va malakalarini baholashda p.f.d., prof, R.Hasanovning baholash mezonlaridan foydalandik.

Rangtasvir kompozitsiyasi

-rasmni qog'oz yuzasida joylashtirish (komponovka)

-ishni mustaqil bajarilishi:


-rasm mazmunini uning mavzusiga mosligi:

-ish bajarishdagi badiiy-estetik did:

- rasm kompozitsiyasi:
- ishni bajarishdagi ijodiy yondoshuv:
- narsa va hodisalarning o'lchov va o'lchov nisbatlari:
- narsa va hodisalarning shakli:
- rasmda ranglar echimi:
- rasmda narsalar tuzilishining echimi:
- qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalari:
- narsalarning perspektiv tasviri:
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari:
- rasmni toza va tartibli bo'lishligi.

O'quvchilarni rangshunoslikdan olgan bilimlari quyidagicha baholandi. (2-jadval diagramma shaklida keltiriladi). Bunda o'quvchilarning rangshunoslikka oid barcha bilimlari tekshirildi.

**2-
jadval**



Jadvaldan shu narsa ko'rin turibdiki, 7-“A” sinfda rangshunoslik bilimlarini o'zlashtirish darajasi 69% ni, 7-“B” sinfda esa 85 %ni tashkil etmoqda. Bunday natijadan biz quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin. Dars qanchalik zamonaviy usullarida asosiga qurilsa, shunchalik ko'p samara berar ekan. Biz quyida

zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars mashg'ulotini keltiramiz.

Darsning mavzusi: "Daraxt o'tqazish" mavzusida rasm ishlash.

Mahg'ulot turi: Rangtasvir

Darsning vazifalari: O'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini, estetik didi va rasm ishlash malakalarini rivojlantirish. Tabiatni sevishga hamda uni asrab-avaylashga o'rgatish.

Darsning jihozlanishi: "Ko'chat o'tqazish" mavzusiga doir rasmlar. Ch.Ahmarovning mavzuga doir surati (Sharqshunoslik instituti devoriga ishlangan freskadan fragment). O'qituvchi tomonidan tayyorlangan kompazitsiya variantlari.

Darsining mazmuni: Darsning boshlang'ich qismida bahor fasli va ko'chat o'tqazish oyligi haqida suhbat o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi ko'chat o'tqazish, mevazorlar yaratishning ahamiyati va bu haqda olim va donishmandlarning fikrlarini qayd qiladi.

O'zbek halqi qadimdan bog'-rog'lar yaratib, cho'llarni bo'stonlarga aylantirgan. Ular o'rikzorlar, yong'oqzorlar, uzumzorlar, anrozorlar yaratib xalqimizning bunday mevalarga bo'lgan talablarini qishin-yozin qondirib kelgan. Meva-chevalarning ko'payishi, ularning arzon bo'lishi xalqimizning sog'ligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'qituvchi o'z fikrlarini tasdiqlash maqsadida mevazor bog' rasmlarini, rassomlar asarlarining reproduksiyaalarini namoyish etadi. Mavzu bilan bog'liq bo'lgan Ch.Ahmarovning surat reproduksiyaasi bu borada o'quvchilarga nihoyatda qo'l keladi.

O'qituvchi u yoki bu mavzu bilan aloqador boshqa bironta asar reproduksiyaasini bolalarga ko'rsatar ekan, u haqda suhbat o'tkazadi. Suhbat quyidagi savollar orqali amalga oshiriladi:

- Surat qaysi mavzuga bag'ishlangan?
- Nega shunday deb xisoblaysiz?
- Suratda qanday voqea tasvirlangan?

- Suratda kimlar tasvirlangan? Ularning har biri qanday ish bilan mashg'ul?
- Suratdagi voqea qaysi faslda va qaysi oyda sodir bo'lyapti? Uni qanday bilish mumkin?
- Voqea qaerda sodir bo'lyapti? Shahardami, yoki qishloqdami?
- Suratdagi voqea qaysi davrlarga xos?
- Uni qanday bilish mumkin?
- Suratning nimasi sizga ko'proq yoqadi?
- Suratni yanada mazmuni qilish mumkinmi? Qanday qilib?
- Surat tahlili tugagach, o'qituvchi bolalarning javoblarini tuzatadi, to'ldiradi va umumlashtiradi.

O'quvchilarning bahor va ko'chat o'tqazish haqidagi tasavvurlarini boyitish maqsadida o'qituvchi ularga bahor haqida she'rlar o'qib beradi.

Ko'chat xosiyati

Bobamlarni dono derlar,
 Boshi to'la ma'no derlar,
 Shuning uchun ular bizga,
 Mevalarni quvvat derlar.

Bahor kelsa, kuz kelsa,
 Ko'chat izlab qolaman,
 Ularga joy qidirib,
 Boshim ushlab qolaman.

Yong'oq pishsa bog'imizda,
 Ularni men qoqaman,
 Ko'p eb qo'ysam shaftolini,
 Qornim silab yotaman.

Shundan so'ng slayda, diapozitiv, fotolar, san'at asarlarining reproduksiyalarini namoyish etadi. Ulardan o'quvchilar o'zlarining ijodiy ishlaridan foydalanadilar.

Navbatdagi vazifa bolalarga topshiriq berish va uni tushuntirishdan iborat. Topshiriq ko'chat haqida bo'lib, kompazitsiya uchun maktab bog'i, mevazorlar, shaxsiy xo'jalik, jamoa xo'jaligi bog'i, ko'cha-ko'ylar ob'ekt qilib olinadi. Tasvir uchun voqea qacda bo'layotganligini hisobga olib, ota-bobolar, daraxlar, bolalar, hayvonlar, qushlar, daryolar, ko'llar, tog'lar tasvirlanishi mumkin.

Shundan so'ng o'qituvchi rasm kompazitsiyasi haqida gapirib, uning bir nechta variantlari to'g'risida to'xtaladi Uni o'qituvchi xomaki tarzda qalamtasvirda uyda tayyorlab kelgan bo'ladi. Rasmlarning uchala variantida ham bir xil voqea va bir xil elementlar mavjud bo'ladi. Ularning bir-biridan farqlari faqat elementlarning kompazitsion jihatdan joylashuvlaridir. Kompazitsiya bilan bir qatorda o'qituvchi rasmning qanday ranglar bilan bo'yalishi haqida ham fikr yuritadi. Bunda rasm ranglarida bahor nafasi anqib turishi, iliq ranglarni ko'proq ishlatilishi haqida alohida to'xtaladi. Rasmni bo'yash haqida gap borganda uning qoidalariga rioya qilish lozimligini ham o'qtiriladi. Xususan, avvalo katta yuzalar, och rangli joylar, keyinchalik to'qroq va kichik yuzalar bosqichma-bosqich bo'yalishi qayd qilinadi.

Bolalarning mustaqil ishlarida yordamchi material vazifasini bajaruvchi rasm elementlari namoyish taxtasida darsning oxirigacha qoldiriladi.

Bolalar mustaqil ishga kirishganlaridan so'ng o'qituvchi bolalarga individual, kerak bo'lgan taqdirda umumiy yordam ko'rsatadi. Individual yordam ko'proq bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarga ko'rsatiladi.

Dars ikki soatga mo'ljallagan bo'lib, uning birinchi qismida bolalar rasmni qalamda, ikkinchi qismida bo'yoqlar bilan tasvirlaydilar.

Yakuniy qism: Ikkala darsning oxirida o'qituvchilarning sinfda bajargan ishlariga yakun yasaladi. Bunda bolalar ishlagan turli darajadagi rasmlardan namunalar ajratib, loinib, ular butun sinf bolalari ishtirokida tahlil qilinadi.

Uyga vazifa: Uyga vazifa qilinib, har ikkala dars oxirida uyga sinfda bajarilgan ishlarni davom ettirish topshiriladi.

XULOSA:

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi kelajakda tasviriyl san'at o'qituvchisini rangtasvir fani nazariyasi va amaliyl ko'nikmalar bilan qurollantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirishdan, tasviriyl san'atga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iboratdir.

Rangtasvir deb – tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. bu tur uchu nasosan buyoqlar – moyli buyoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, kumir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterilidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, o'yna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Xar qanday rangtasvir ishida, avvalo uning rasmini ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rnini egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatidan turli-tuman bo'lib, ular moybuyoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pasteli bo'lishi mumkin.

Rangtasvirning qo'yidagi turlari mavjud: 1. Dastgorli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir. 3. Miniatyura (mo'jas) rangtasviri. 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr- dekorativ (bezak) rangtasviri.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining vazifasi bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarini badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tasviriyl san'at asarlari bilan chuqur tanishtirish, ularni nafosat borasidagi fikr va mulohazalarini yuksaltirish, tasviriyl san'at asarlarini ko'rish va tushunish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, talabalarga, bo'lajak rassom-pedagoglarga ko'rib-kuzatib, tahlil qilib to'g'ri tasvirlash, atrof-muhitni, borliqni idrok etish, rang sezish, rangtasvir asarlarini yaratish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Realistik rangtasvir ishlash san'ati borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Yuqoridagi barcha fikr mulohazalardan kelib chiqib biz bitiruv malakaviy ish yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik.

1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning maqsad va vazifalari ishlab chiqildi.
2. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning mazmun va mohiyati yoritib berildi.
3. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida dars mashg'ulotlari jarayonida Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning samarali usullari ishlab chiqildi
4. Tajriba-sinov ishlarida barcha Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning rangshunoslik to'g'risidagi ma'lumotlari tekshirib borildi.

Tadqiqot natijalari va xulosalari asosida quyidagi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

- zamonaviy talablar va fan-texnika taraqqiyotidan kelib chiqqan holda Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish to'g'risidagi tegishli bilimlarni puxta egallashlariga erishish.

- Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning samarali tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. A. Karimov. Vatan barchamiz uchun muqaddasdir. T. O'zbekiston. 2001 y
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston. 1999. - 37 b.
1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq. 1997. - 63 b.
2. N. Abdullayev San'at tarixi. T-1987 y.
3. B. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T-1984y
4. B. Jabbarov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug'ati. N-2001 y
5. N. Normatova Tasviriy san'at atamalari lug'ati. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi. T-1998 y.
6. Rangtasvir, Tasviriy san'at darsliklari. Moskva. 1995 y.
7. B. Tojiboyev. Rangtasvir fanidan ma'ruzalar matni. T-2000 y.
8. A. Umarov. M. Axmedov. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati T-1997y.
9. N. Abdullayev. San'at tarixi. T-2001 y.
10. M. Nabiyeu. Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi. T-1995y.
11. X. Egamov «Bo'yoqlar bilan ishlash» T-1987 y.
12. M. Nabiyeu, B. Azimova «Rasm chizishni urgatish metodikasi» T-1976 y.
13. M. Nabiyeu "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995
14. Avtorlar guruxi. Shkola izobrazitelnogo iskusstva 3-vo'pusk. Moskva. Izobrazitelnoe iskusstvo-1989.
15. Entsiklopediya xudojnika. Izdatelstvo «Vneshsigma» 2000 g.
16. N.V. Odnoralov «Materialo' v izobrazitelnom iskusstve». Izd. «Prosvehenie» 1983 g.

17. N.V. Odnoralov «Materialo', instrumento' i oborudovanie v izobrazitel'nom iskusstve». Izd. «Prosvechenie» 1988 g.
18. «Shkola izobrazitel'nogo iskusstva» Izd «Izobrazitel'noe iskusstvo», 1989 g.
19. P. Kohel. Entsiklopedicheskiy slovar shkolnika "Iskusstvo". M – 2000 g.
20. N. M. Sokolnikova «Izobrazitel'noe iskusstvo i metodika ego prepodavaniya v nachal'noy shkole». M. «ASADEMIA» - 1999 g.
21. O.I. Nesterenko «Kratkaya entsiklopediya Dizayna» M. «Molodaya gvardiya» 1994 g.
22. M.N. Makarova «Perspektiva» M – 1989 g.
23. S.D.Levin "Besedo' yuno'm xudojnikom" M-1988.
24. N.N.Rostovtsev "Metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole" M-2000.
25. N.P.Bestchastnov idr. "Jivopis" M-"Vlados"-2001.
26. E.V.Shoroxov "Osnovo' kompozitsii" M-1979.
27. N.N. Rostovtsev, S.E. Ignatev, E.V. Shoroxov. "Risunok. Jivopis. Kompozitsiya" Moskva prosveshchenie-1989.
28. S.M.Daniel. "Kartina klassicheskoy epoxi" iskusstvo. Leningradskoe otdelenie 1986.
29. S.M. Daniel. "Iskusstvo videt" Iskusstvo Leningradskoe otd. 1990.
30. E.V. Shoroxov "Osnovo' kompozitsii" Izdatel'stvo "Prosvechenie", 1979 g.

Internet ma'lumotlari


[http :G'G' www. uz](http://www.uz)

[http: G'G' www. ziyonet. uz](http://www.ziynet.uz)

[http :G'G' www. google.uz](http://www.google.uz)

[http : G'G' www. san'at.uz](http://www.san'at.uz)

Ilovalar









Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti bitiruvchisi Xonimqulov Kenjaboy Eshqozi o'g'lining ***“Tasviriy san’at mashg’ulotlarida o’quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish”*** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan keyin jamiyatimizda katta xayrli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi tashkil etilgan akademik lisey, kollej, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Inson ijodiy faolligi uning xar tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson xayotiy jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar dunyosi borliqqa go'zallik nafasat qonuni orqali qarashga undaydi.

Tasviriy san'atning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. "Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, — u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi,— deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi.— Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi". Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy aytib o'tganidek: "San'atni o'rganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar".

Bitiruvchi K.Xonimqulovning bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va ilmiy metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilova qismlaridan iborat bo'lib, u amaldagi nizomlar asosida yozilgandir.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida rang san'ati hamda rangtasvir tarixiga bir nazar va Rang simvolikasi va rang va san'atdagi sintez haqida tushuncha haqida to'xtalib o'tgan.

Ikkinchi bobda esa rangtasvirda kompozitsiya qonunlari va vositalari hamda tajriba – sinov ishlari va uni o'tkazish metodikasi yoritib o'tilgan.

Bitiruvchi o'z bitiruv malakaviy ishida ba'zi bir punktatsion va stilistik xatolarga o'yl qo'ygan bo'lsa-da, bu narsa ishning ilmiy qiymatiga unchalik ham ta'sir qilmaydi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, bitiruvchi K.Xonimqulovning ***“Tasviriy san’at mashg’ulotlarida o’quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish”*** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman va davlat attestatsiya komissiyasidan a'lo bahoga baholashlarini so'rayman.

Guliston san'at maktab internati

tasviriy san'at o'qituvchisi

J.G`afurov

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti 4–bosqich talabasi Xonimqulov Kenjaboy Eshqozi o'g'li tomonidan 5110800 – tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun ***“Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarga rangshunoslik bilimlarini shakllantirish”*** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga rahbar

Taqriz

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisini rangtasvir fani nazariyasi va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirishdan, tasviriy san'atga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iboratdir.

Rangtasvir deb – tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. bu tur uchu nasosan buyoqlar – moyli buyoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, kumir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterilidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, o'yna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Xar qanday rangtasvir ishida, avvalo uning rasmini ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rnini egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatidan turli-tuman bo'lib, ular moybuyoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pasteli bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib bitiruvchi K.Xonimqulovning bitiruv malakaviy ishi dolzarb ahamiyatga egadir.

Bitiruvchi K.Xonimqulovning bitiruv malakaviy ishi amaldagi Nizomlar asosida yoritilgan bo'lib, uning hajmi 51 betni tashkil etadi.

Bitiruvchi o'z bitiruv malakaviy ishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, tasviriy san'atdan darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tishni samarali yo'llarini va usullarini ishlab chiqdi.

Bundan tashqari u bitiruv malakaviy ishi yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelib, etarlicha ilmiy metodik xulosalarni ishlab chiqishga harakat qilgan.

Bitiruvchi K.Xonimqulovning bitiruv malakaviy ishi yuzasidan bilimi va malakasi qo'yilgan muammolarni mustaqil hal qilishga etarli ekanligini xisobga olib, men bu bitiruv malakaviy ishni davlat attestatsiya himoyasiga tavsiya etaman.

“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ”

ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi

H. Toshboyev